



KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODLARI

Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

QDU Pedagogika kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Zarnigorxonmeliqoziyeva@gmail.com

Esonqulov Ilyos Shuxrat o'g'li

QDU Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda kreativ yondashuv asosida o'qitish metodlariga oid masalalar yoritilgan. Kreativlikning ta'lim jarayoniga ta'siri, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va yangicha qarashlarni shakllantirishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan kreativ metodlarning mazmuni va vazifalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish metodlari, ta'lim jarayonlari, pedagogika interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, kreativlik, texnologiya, ijodkorlik, kabi rivojlanish.

Kreativ yondashuv asosida o'qitish metodlariga ehtiyoj ortib bormoqda, chunki zamonaviy ta'lim tizimi ijodiy fikrlaydigan, yangilikka intiluvchi va muammolarga noodatiy yechim topa oladigan avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni hamda 2022-yil 12-maydagi PQ-257-sonli “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlarda ta'lim sifatini oshirishda kreativ yondashuvga urg'u berilgan. Shuningdek, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (yangi tahriri, 2020-yil) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4310-sonli qarorida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, innovatsion va kreativ metodlarni tatbiq etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.


Zamonaviy ta'lim jarayonida kreativ yondashuv asosida o'qitish talaba yoki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muammolarga noan'anaviy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy ta'lim metodlari o'rniga innovatsion, interaktiv va kreativ yondashuvlar kirib kelmoqda. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqish ortadi, ularning shaxsiy faolligi oshadi.

Kreativlik – bu ijodiy fikrlash, noodatiy yondashuv, muammolarga yangicha ko'z bilan qaray olish qobiliyatidir. Kreativlik – bu yangi, original va samarali g'oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yechim topish, mavjud holatga boshqacha nigoh bilan qaray olish qobiliyatidir.

Kreativ odam quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kreativ yondashuv deganda, o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglashlari, o'z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari va mustaqil qarorlar qabul qilishlari uchun sharoit yaratadigan o'qitish usullari tushuniladi. Bugungi kunda kreativlik — ta'limdagi raqobatbardoshlikning asosiy mezonlaridan biridir. Kreativ yondashuv psixologiya, pedagogika va didaktika sohalarida chuqur o'rganilgan. A. Maslou, G. Gardner, J. Gilford kabi olimlar ijodiy tafakkur va kreativlikni insonning tabiiy qobiliyati deb ta'riflaydi. Kreativ yondashuv asosida o'qitish — bu o'quvchilarga erkin fikrlash, muammolarga innovatsion yechim topish, yangi g'oyalar ishlab chiqish imkonini beradigan pedagogik jarayondir. Bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan o'qitish kontseptsiyasi bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchining vazifasi — o'quvchiga bilimni tayyor shaklda berish emas, balki uni mustaqil izlanishga, fikr yuritishga undashdan iborat.

Bunday yondashuv o'z ichiga interaktiv usullar, loyihaviy faoliyat, muammoli o'qitish, gamifikatsiya, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi metodlarni oladi. Kreativ metodlar orqali o'quvchi markazida bo'lgan ta'lim modelini yaratish mumkin.

Kreativ yondashuv asosida o'qitish metodlarini joriy etish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir pedagog o'z faoliyatida kreativ metodlarni to'g'ri tanlab, ulardan samarali foydalanishni o'rganishi lozim. Bugungi kunda ta'lim jarayonida kreativ yondashuv asosida o'qitish metodlarini joriy etish dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarning faolligini oshirish, ularning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va darsda ishtirokini ta'minlash uchun an'anaviy uslublar bilan bir qatorda kreativ yondashuv talab etiladi.

Kreativ metodlar orqali ta'lim jarayoni ko'proq interaktiv, jonli va qiziqarli tus oladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlash, erkin fikr almashish, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, har bir pedagog zamonaviy talablarga javob beruvchi o'qitish metodlarini



o'zlashtirishi, o'quvchilar ehtiyojini hisobga olgan holda darsni tashkil etishi muhim hisoblanadi.

Kreativ yondashuv asosidagi metodlar orqali faqat bilim emas, balki kompetensiyalarga asoslangan ta'limga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida raqobatbardosh, ijtimoiy faol va zamonaviy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli, bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar, davlat siyosatida belgilanayotgan ustuvor yo'nalishlar va me'yoriy hujjatlar asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Kreativ yondashuv asosidagi metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. "Aqliy hujum" guruh bo'lib ishlanadigan usul bo'lib, muammo ustida fikrlar erkin ilgari suriladi va oxirida eng maqbul yechim tanlanadi.
2. "Rolga kirish" o'quvchilar turli rollarni bajarib, amaliy tajriba orttiradilar. Bu usul ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.
3. "Sokratik suhbat o'qituvchi savol-javob orqali o'quvchini chuqur fikrlashga undaydi.
4. "Case-study" haqiqiy hayotdagi holatlar asosida muammo yechimlari ishlab chiqiladi.
5. "Cluster" yoki "Mind-map" usulida o'quvchilar mavzular orasidagi aloqalarni vizual tarzda tahlil qiladilar.

Ushbu metodlar o'quvchini faollashtirish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish va ijodkorlikni oshirishda katta samara beradi.

Kreativ yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Bu metodlar yordamida:

- Talabalar fanlarni chuqurroq o'zlashtiradi;
- O'qitish jarayoni jonlanadi va interaktiv tus oladi;
- O'quvchilar muammolarni mustaqil hal qilishga o'rganadilar;
- Guruhda ishlash, yetakchilik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Masalan, pedagogika darslarida o'quvchilarga muayyan ekologik muammoga yechim topish vazifasi qo'yilganda, ular bir vaqtning o'zida ilmiy bilim, ijodkorlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirishadi.

Kreativ yondashuv asosida o'qitish metodlari ta'limda yangi bosqichni boshlab berdi. Endilikda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, motivatsiya beruvchi va rivojlantiruvchi shaxs sifatida qaraladi. Bunday yondashuv:

- O'quvchilarning individual salohiyatini yuzaga chiqaradi;
- Ularda tanqidiy va tizimli fikrlashni shakllantiradi;
- O'qitish jarayonini zamonaviy va samarali qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidai takliflarga kelindi:

1. O'qituvchilar uchun kreativ metodlar bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish;
2. Ta'lim dasturlariga kreativ yondashuvlarni integratsiyalash;
3. O'quvchilarning kreativ ishlanmalarini rag'batlantirish tizimini yaratish;
4. Har bir fan uchun mos bo'lgan kreativ metodlar katalogini ishlab chiqish.



Ta'limdagi yangi interfaol metodlar va usullardan foydalanish o'qituvchi va talabalarning ijodkorligining oshishiga olib keladi va talaba yoshlarni katta hayotga ijodiy g'oyalar va o'zgachalik bilan yondashib ilm –fanda ham yangiliklar qilinishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda.
2. Guilford J.P. (Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444-454.
3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish./Monografiya.-T.: "Fan va texnologiyalar", 2016.-B.77
4. Zunnunov A., Xayrullayev M. Pedagogika tarixi.- T.: Sharq, 2000.
5. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. Ibratli so'zlar. – T.: Fan, 1993.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.X va boshq O'quv tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy yetish.- T.: O'zPFITI, 2004 7.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7244584>